

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Sa'dullayeva Noila Lutfulla qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishning pedagogik metodlari va texnologiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot ijodiy faoliyatning shakllanishiga ta'sir qiluvchi xususiyatlarni faoliyatini baholash usullari, rasm va grafiklardan foydalanish orqali ijodiy yondashuvlar ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ijobiy yondashuv, rasm, grafika, metod vositalari, innovatsion tizim, interaktiv qobiliyat, metodologiya.

DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY IN PRIMARY EDUCATION STUDENTS

Abstract: The article analyzes pedagogical methods and technologies for developing the creative activity of primary school students. The study shows methods for assessing the characteristics that affect the formation of creative activity, creative approaches through the use of drawings and graphics.

Key words: primary education, positive approach, pictures and graphics, methodical tools, innovative system, interactive skills, methodology.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: В статье анализируются педагогические методы и технологии развития творческой активности учащихся младших классов. Показаны методы оценки характеристик, влияющих на формирование творческой активности, творческих подходов посредством использования рисунков и графики.

Ключевые слова: начальное образование, позитивный подход, рисунки и графики, методические инструменты, инновационная система, интерактивные навыки, методология.

Kirish: Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatni yanada rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Aytishimiz mumkinki o'quvchilarning ijodkorligini shakllantirish ularning individual qobiliyatlarini ochib berishga, balki kelgusidagi ta'lim jarayonida muaffaqiyatli bo'lishga ham asos bo'la oladi. Malakali oqituvchilar bu jarayonda o'zining tajribasi va yangi metodologik yondashuvlarini tadbiq etish zarur hisoblanadi. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish o'yin ko'rinishidagi mashg'ulotlar loyiha asosidagi

ta'lim va interaktiv usullardan foydalanishni talab qiladi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiylikni rivojlantirishga qaratilgan ijodiy va innovatsion yondashuvlar va metodikalar o'rganiladi.

Boshlang'ich ta'lim — o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqichdir. Ayniqsa, bu davrda ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, o'z fikrini ifodalash kabi ko'nikmalarni rivojlantirish zarur.

Ijodiy faoliyat — bu yangi g'oyalar yaratish, mavjud bilimlarni yangi usulda qo'llash, muammoni noodatiy yo'l bilan hal qilish jarayonidir.

Nazariy tahlil metodikasi: Bu metodika nazariy bilimlarni chuqur o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan. Uning asosiy jihatlari keltirib o'tiladi.

1. Mavzuni chuqur o'rganish.
2. Adabiyotlarni tahlil qilish.
3. Muammolarni hal qilish.
4. Fikr va tushunchalarni shakllantirish.
5. Tahlil va sintez.

Bu metodika orqali o'quvchilarning analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari yanada rivojlantiriladi.

Rasm va grafiklar yordamida tushuntirish: Bu ma'lumotni aniq va oson tushunish uchun juda samarali usul hisoblanadi.

Interaktiv metodlar:

Ushbu metodlar dars jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

1. “Aqliy hujum”(Brainstorming).

Maqsadi :Muammoga yechim topish yoki yangi g'oyalar yaratish.

Jarayon:

- Muammo yoki savol e'lon qilinadi .
- Ishtirokchilar cheklanmagan holda ,qisqa vaqt ichida barcha kelgan g'oyalarni qisqa vaqt ichida aytadilar.

- Hech qanday g'oya tanqid qilinmaydi yoki baholanmaydi.
- Barcha g'oyalar yozib olinadi.
- G'oyalar guruhlanadi, muhokama qilinadi va eng yaxshilari tanlanadi.

Interaktivligi: Barcha ishtirokchilar faol ishtirok etadilar, fikr almashadilar va birgalikda yechim izlaydilar.

2. “Kichik guruhlarda ishlash”(small group work).

Maqsadi:Ma'lumotini o'zlashtirish, muammoni hal qilish yoki loyihani bajarish.

Jarayon:

- * Sinf yoki guruhlariga bo'linadi (odatda 3,5 kishi)
- * Har bir guruhga aniq vazifa beriladi.
- * Guruh a'zolari o'zaro hamkorlikda vazifani bajaradilar.

- * Har bir guruh o'z natijasini taqdim etadi.

- * Umumiy muhakama o'taziladi.

Interaktivligi: Guruh a'zolari o'zaro muloqotda bo'ladilar, fikr almashadilar va birgalikda yechimga keladilar.

3. "Rolli o'yinlar"(Role -playing).

Maqsadi: Ma'lum bir vaziyatni simulyatsiya qilish va ishtirokchilarning muammolarini hal qilish, muloqot qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Jarayon:

- * Ishtirokchilarga turli ro'llar beriladi.

- * Ma'lum bir vaziyat yaratiladi.

- * Ishtirokchilar o'z rollarga kirib, vaziyatni o'naydilar.

- * O'yin so'ngida muhakama o'tkaziladi.

Interaktivligi: Ishtirokchilar faol harakat qiladilar, o'zaro ta'sir o'tkazadilar va vaziyatga moslashadilar.

4. "Munozara"(Debate).

Maqsadi: Tanqidiy fikrlash, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish va boshqalarning fikrlarini hurmat qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Jarayon :

- * Munozara uchun mavzu tanlanadi.

- * Ishtirokchilar ikki guruhga bo'linadilar.

- * Har bir guruh o'z dalillarini tayyorlaydilar.

- * Guruhlar navbatma-navbat o'z dalillarini taqdim etadilar.

- * Hakamlar g'olibni aniqlaydilar.

Interaktivligi: Ishtirokchilar faol munozara qiladilar, o'z fikrlarini himoya qiladilar va boshqalarning fikriga qarshi dalillar keltiradilar.

5. "Savol -javob"(Question-answer).

Maqsadi: Ma'lumotni tekshish va o'zlashtirish.

Jarayon:

- * Oqituvchi yoki boshlovchi mavzu bo'yicha savollar beradi.

- * Ishtirokchilar savollarga javob beradilar.

- * Javoblar muhakama qilinadi va to'g'ri javoblar aniqlanadi.

Interaktivligi: Ishtirokchilar faol javob beradilar va savollar beradilar.

Ushbu metodikalar dars jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Interaktiv metodlar yordamida o'quvchilar faol ishtirok etadilar, mustaqil fikrlaydilar va bilimlarini amaliyaotda qo'llaydilar. Yuqorida aytib o'tilgan metod vositalar orqali o'quvchilar har tomonlama o'sib, ijobiy yondashib, o'z ustida ishlab rivojlanib boradi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy yondashuvida har xil metodlardan samarali foydalanish muhim o'rin kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev, A., & Qodirov, A. (2019). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
2. Saidahmedov, N. (2003). *Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar*. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti.
3. G'ulomov, S. S. (2006). *Pedagogik innovatsiyalar*. – T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
4. Usmonboeva, M. (2021). *Boshlang'ich ta'limda ijodiy fikrlashni rivojlantirish*. – T.: “Ilm Ziya”.
5. Salomova, D. (2020). *Ijodkorlikni shakllantirish metodikasi*. – T.: TDPU nashriyoti.
6. Hasanboeva, O. (2018). *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*. – T.: “Yangi asr avlodi”.